

Ilmiy to'garak: "Yosh fiziologlar"

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Fiziologiya" kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati **"Yosh fiziologlar"** nomli talabalar ilmiy to'garagi orqali yo'lga qo'yilgan. To'garak faoliyati Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetida bo'lib o'tgan xalqaro va respublika miqyosidagi talabalar ilmiy-amaliy konferensiyalari doirasida alohida yig'ilishlar tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Unda talabalar fiziologiya sohasidagi **dolzarb muammolar hamda zamonaviy tibbiy yondashuvlar** bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlab, respublika tanlovlariga faol ishtirok etib kelishmoqda. To'garak faoliyati fiziologiya yo'nalishlariga qiziquvchi barcha talabalarni o'z ichiga oladi. A'zolar o'z yutuqlari bilan rag'batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda.

To'garak rahbari:

Muysinjonov Jaloliddin — Qator ilmiy ishlar muallifi, uch karra "Samarqand 2020" xalqaro tibbiyot talabalari olimpiadasida ishtirokchisi va har birida oliy uch o'rindan birini ega, "USMLE STEP 1 sertifikari egasi. Ko'plab respublika va xalqaro ilmiy tanlovlar, olimpiadalar hamda loyihalar g'olibasi,

To'garak sardori:

Adxamova Feruza - "Samarqand 2020" xalqaro tibbiyot talabalari olimpiadasida ishtirokchisi va nominatsiya egasi. Barcha fanlardan a'lo baxolarga o'zlashtirib keladi.



To‘garak a‘zolari soni:

Bugungi kunda “Yosh fiziologiyasi” ilmiy to‘garagida **40 dan ortiq talaba** faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga biriktirilgan bo‘lib, ular o‘rtasida **“ustoz-shogird” an‘analari** muvaffaqiyatli shakllantirilgan.



Kafedra yig'ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning oratorlik mahoratini rivojlantirish maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar tomonidan institut iqtidorli talabalariga biriktirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan bo'lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To'garak a'zolari hozirgacha o'tkazilgan xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko'rsatib kelishmoqda. Bundan tashqari, Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Fiziologiya" kafedrası Talabalar ilmiy to'garagi a'zolari xalqaro va respublika OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda maqolalar chop etib kelmoqdalar.